



TA'LIM MUASSASALARIDA CHAQIRUVGA QADAR
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK DARSLARINI ZAMONAVIY
TALABLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

*Raxmonov Mo'ydinjon Zaylobidinovich,
M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi Umumqo'shin
tayyorgarlik sikli boshlig'i.*

*Valiyev Sarvar Abdisalimovich, M.Ulug'bek
nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Harbiy
tayyorgarlik o'quv markazi Umumqo'shin tayyorgarlik
sikli o'qituvchisi.*

Annotatsiya:

Ushbu tezis ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini majburiy joriy etish, 2024–2028 yillarda o'quv-moddiy bazani mustahkamlash, o'qituvchilar malakasini oshirish va harbiy unvonlar berish tartibini belgilaydi. Fan dasturi Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar va Sog'liqni saqlash vazirliklari hamkorligida ishlab chiqiladi, moliyalashtirish davlat va mahalliy budjet hisobidan qoplanadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026, Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, ta'lim muassasalari, o'quv-moddiy baza 2024–2028, o'qituvchilar malakasi, harbiy unvon, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti,



Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy budjet, harbiy poligon, nazorat.

Аннотация:

Новая стратегия развития Узбекистана 2022–2026, Год внимания к человеку и качественного образования, Начальная подготовка к призыву, Образовательные учреждения, Учебно-материальная база 2024–2028, Квалификация учителей, Воинское звание, Ташкентский государственный педагогический университет, Ферганский государственный университет, Бухарский государственный педагогический институт, Министерство обороны, МЧС, Министерство здравоохранения, Местный бюджет, Военный полигон, Контроль

Ключевые слова: Настоящая статья устанавливает порядок обязательного введения предмета «Первичная подготовка к призыву» в образовательных организациях, укрепления учебно-материальной базы в 2024–2028 годах, повышения квалификации педагогических кадров и присвоения воинских званий. Программа предмета будет разработана совместно с Министерствами обороны, по чрезвычайным ситуациям и здравоохранения, а финансирование будет осуществляться за счет средств государственного и местных бюджетов.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga



tayyorlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunining 13-moddasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda - ta'lim muassasalari) chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tilishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida:

Umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibini belgilash;

Fan o'qituvchilariga zaxiradagi harbiy unvon va malaka toifalarini berish tizimini joriy etish;

Fanning o'quv-moddiy bazasini 2023 - 2026 yillarda bosqichma-bosqich mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq.

Ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv-moddiy bazasini 2024 - 2028 yillarda bosqichma-bosqich mustahkamlash dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.





Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

hududlarda yangi quriladigan ta’lim muassasalarining loyiha oldi hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan kelishilgan holda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash nazarda tutilishini ta’minlasin;

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

2024 yil 15 yanvardan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilariga ta’lim tashkilotlarining boshqa fan o‘qituvchilari uchun belgilangan tartibda malaka toifasi berish hamda ularni Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakultetlarida malakasini oshirish ishlarini yo‘lga qo‘ysin;

2024 yil 20 fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining yangi o‘quv dasturi va darsligini ishlab chiqsin.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qitilishini tashkil etishda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga uslubiy jihatdan ko‘maklashsin.



Ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari malakasini oshirish, ularga malaka toifasini berish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari doirasida hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash, qurol saqlash xonalarini texnik qo'riqlashni tashkil etish, o'quvchi yoshlarning harbiy poligonlarda amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish xarajatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri B.N. Kurbanov, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X.U. Umarova hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri zimmasiga yuklansin.

ADABIYOTLAR

1. Турсунов Шахзод Рамозонович (2016). Патриотическое воспитание курсантов военных образовательных учреждений. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/patrioticheskoe-vospitanie-kursantov-voennyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy->
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.





3. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi. (2018).

Toshkent..

4. Botirov Uchqun Vahofuqulovich. "Ватанни Севиш-Маънавий Жасоратдир." *Conference Zone*. 2022.

5. .“O‘zbekiston Respublikasi mudofaa va harbiy xizmat sohasidagi davlat siyosati to‘g‘risida”gi farmonlar va qarorlar, Toshkent, 2020–2025.

6. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. THE IMPORTANCE OF INCREASING AND DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF STUDENT MILITARY EDUCATION STUDENTS //Archive of Conferences. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 98-99.

7. Botirov Uchqun Vahofuqulovich. "Algorithms and Circuitry Methods for Increasing the Noise Immunity of Analog Blocks of Informationmeasuring

8. Botirov Uchqun Vafokulovich,. "Mechanisms For Increasing The Noise Resistance Of Analog Blocks Of Information Measuring Systems." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 5, 24 May. 2022, pp. 627-630.

9. . Adxam Usmonov. "The role of social pedagogy in the development of feelings of love for the motherland and patriotism in students and schoolchildren." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 171-174.

10. Anvar Kanimkulov Rahimkulovich. DEVELOPMENT OF MILITARY PATRIOTIC TRAINING OF STUDENTS OF PRE-SERVICE MILITARY EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia
<https://conferencepublication.com> May 31st 2021



11. Mirzaev Shavkat Turdibaevich. "The Role and Role of Public Schools in the Preparation of Senior Students for Military Service." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 3, 11 Mar. 2022, pp. 277-280.

12. Tursunov Shahzod Ramozonovich. (2021). ABOUT PATRIOTISM IN THE CONTEXT OF GLOBAL REALITY IN THE XXI CENTURY. Archive of Conferences, 23(1), 50-51. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/890>

13. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 11-13.

Systems." *European Scholar Journal*, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 510-511.

14. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020). Toshkent: Adolat.

